

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

O'zbekistonda nomoddiy madaniy meros muhofazasi.....	332
U.N.Olimov	
Arab tarixshunosligida XIX asr oxirida Markaziy Osiyodagi siyosiy jarayonlar va Rossiya imperiyasi bosqinining o'rganilishi	336
M.Q.Tolibboev	
O'zbekiston hududida mahallaga xos ilk belgilarning paydo bo'lishi va boshqaruv an'analariga doir mulohazalar	340
X.S.Jumanazarov	
Xalq tabobatida davolash usullarining mintaqaviy xususiyatlari.....	346
Sh.N.Jo'rayev	
Sulton Husayn Boyqaro davrida diniy ulamolarning o'rni.....	351
O.M.Normatov	
O'zbekistonda o'tkazilgan rayonlashtirish natijalari.....	356
D.G'.Mirzayev	
"Turkiston viloyatining gazetasи" da Qo'qon xonligining bosib olinishiga oid ma'lumotlar tahlili	361
A.O.Tairov	
Anushteginiylar sulolasi davrida ijtimoiy hayot.....	369
P.A.Nabihev	
"Farg'on'a vodiysi tojiklarining farzand tug'ilishi va to'y marosimlari bilan bog'liq bo'lgan urf-odat va an'analari (Qorategin tojiklari misolida)"	373
A.A.Mamadjanov	
Muhammad Vafo Karmanagiy – Buxoro amirligi tarixchilik mакtabining ilk vakili.....	378
P.A.Arslonzoda	
Tasвири макотиб ва мадориси аморати бухоро дар "Ёддоштҳо"-и Садриддин Айнӣ	382

ADABIYOTSHUNOSLIK

A.A.Kasimov, Sh.G'.Akbarova	
Badiiy retsepsiyaning nazariy asoslariga doir	389
Z.J.Pardayeva	
Dostoevskiy, Baxtin, Polifonik roman	393
H.Jo'rayev	
Totem tushunchalarning ijtimoiy tafakkur tarixidagi o'rni.....	401
K.A.Jamahmatov	
Adabiy manbalarda Arshiy Termiziyning hayoti va ijodiy faoliyatining tadqiqi	404
X.Jo'rayev, M.Ismoilova	
Ijtimoiy tafakkurning majoziy ifodasi	410
I.I.Rustamova	
Dramada sahnada ko'rinnmaydigan qahramon va uning badiiy talqini	413
M.A.Jo'rayeva	
Jadid adabiyotida safarnoma janri va uning taraqqiyoti	417
M.Islomova	
Taqlid va Tasvir	421
D.G'.Gafurova, A.A.Qayumov	
Isajon Sulton hikoyalarida shamol timsoli	424
X.T.Mirzaev	
Talқини рукнҳои арӯзӣ дар рисолаи "Меъроҷ-ул-арӯз"-и Муҳаммад Ғиёсиддин	428
N.Q.Bo'riyeva	
J.R.R.Tolkinning "Uzuklar hukmdori" asarida yaxshilik kontsepti.....	433
M.Sh.Dehqonova	
Mustaqillik davri dramaturgiyasi va adabiy tanqid.....	440
G.A.Mashrapova	
Ertak syujet tiplarida qidiruvga qarshi safar (antiqidiruv) motivi turlari.....	445
Q.V.Yo'lichiyev	
Abdulla Sherning "Ikki ayol haqida qo'shiq" she'ri tahlili	449
B.N.Isakova	
Adabiyotda badiiy va mushtarak tarjimaning ahamiyati	456



UDK: 93(18).7290.2

ADABIY MANBALARDA ARSHIY TERMIZIYNING HAYOTI VA IJODIY FAOLIYATINING TADQIQI**ИССЛЕДОВАНИЕ ЖИЗНИ И ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ АРШЫ ТЕРМИЗИ В ЛИТЕРАТУРНЫХ ИСТОЧНИКАХ****RESEARCH OF THE LIFE AND CREATIVE ACTIVITY OF ARSHY TERMIZI IN LITERARY SOURCES****Jamahmatov Karomiddin Aynillo o'g'li** 

Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi direktori o'rinosi. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti doktoranti (DSc)

Annotatsiya

Termiz zamini Kesh, Nasaf, Samarcand, Buxoro, Xorazm, Shosh, Farg'ona, Marg'ilon kabi Movarounnahrning qadimiy ilm va fan markazlaridan biri hisoblanadi. Bu shahar tarixiy manbalarda "olimlar shahri", "ulug' mutafakkirlar zamini", "buyuk allomalar yurti" va "shaharlarning onasi" kabi sifatlar bilan tilga olinganligini ta'kidlash lozim. Shu muqaddas zamindan yetishib chiqqan 200 dan ortiq mutafakkirlar nomi bugungi kunda tarixiy manbalarda zikr etiladi. Hadis, fiqh, kalom, tasavvuf, falsafa, mantiq, handasa, falakiyat va adabiyot sohalarida yetuk olimlar shu zaminda tarbiya topib, butun dunyo xalqlariga ilmu ma'rifat va ziyo ulashganlar. Mana shunday ulug' zotlardan sanalmish Arshiy Termizi XVI-XVII asrlarda Hindistonda ilmiy-ijodiy faoliyat olib borgan. Ushbu maqolada mutafakkirning hayoti, boy adabiy merosi tavsifi, she'riyatining ma'no-mazmuni tahlilga tortilgan. Mutafakkir borasida tarixiy va zamonaviy manbalarda kelgan ma'lumotlar adabiy-manbashunoslik va matnshunoslik uslubi asosida o'rganilib, mavzuga aloqador ilmiy xulosalar berildi. Maqola so'ngida Hindiston diyorida faoliyat olib borgan Termiziyarning faoliyat yo'nalishi faktik ma'lumotlar bilan ko'satib o'tildi.

Аннотация

Земля Термез – один из древних центров знаний Мавераннахра, подобно Кешу, Насафу, Самарканду, Бухаре, Хорезму, Шошу, Фергане, Маргилану. Этот город упоминается в исторических источниках с такими прилагательными, как «город ученых», «земля великих мыслителей», «земля великих ученых» и «матер городов». Сегодня в исторических источниках упоминаются имена более 200 мыслителей, вышедших из этого фонда. На этой земле получили образование зрелые учёные в области хадисов, юриспруденции, речи, логики, геометрии, астрономии и литературы, и люди всего мира делились знаниями и знаниями. Сайид Низамиддин Мухаммад Арши Термизи, считающийся одним из таких дворян, вел научную и творческую деятельность в Индии в XVI и XVII веках. В статье анализируется жизнь мыслителя, богатое литературное наследие, значение поэзии. На основе метода литературно-источниковедения и текстологии изучены сведения о мыслителе в исторических и современных источниках, даны научные выводы, относящиеся к теме. В конце статьи с фактическими данными показано направление деятельности термизитов, работавших в Индии.

Abstract

The land of Termiz is one of the ancient centers of knowledge of Movarounnahr, like Kesh, Nasaf, Samarkand, Bukhara, Khorezm, Shosh, Fergana, Margilan. This city is mentioned in historical sources with such adjectives as "city of scientists", "land of great thinkers", "land of great scholars" and "mother of cities". Today, the names of more than 200 scholars who emerged from this foundation are mentioned in historical sources. Mature scholars in the fields of hadith, jurisprudence, speech, logic, geometry, astronomy and literature were educated on this land, and people of the whole world shared knowledge and knowledge. Arshy Termizi, who is considered one of such nobles, carried out scientific and creative activities in India in the 16th and 17th centuries. This article analyzes the thinker's life, rich literary heritage, and the meaning of poetry. Information about the thinker in historical and modern sources was studied based on the method of literary-source studies and textual studies, and scientific conclusions related to the topic were given. At the end of the article, the direction of activity of the Termizites who worked in India was shown with factual information.

Kalit so'zlar: Termiz, Hindiston, Movarounnahr, adabiy maktab, shoir, xattot, mohir kotib, tarixchi, davlat siyosati, harbiy xizmatchi, sayyidzoda.

Ключевые слова: Термез, Индия, Маваруннахр, литературная школа, поэт, каллиграф, опытный писец, историк, государственная политика, военный офицер, Сайдзаде.

ADABIYOTSHUNOSLIK

Key words: Termiz, India, Mavarounnahr, literary school, poet, calligrapher, skilled scribe, historian, public policy, military officer, sayidzada.

KIRISH

Ilmu fanga e'tibor bergan xalqning hayoti doimo farovon bo'lgan. Xalqlarning taraqqiyoti yoki tanazzuli ilm va olimlarga bo'lgan munosabat oqibatidan kelib chiqadi. Dunyo xalqlari tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, kam sonli xalqlarning vakili dunyo ilm-fan va madaniyatiga salmoqli hissa qo'shgan. Ammo bizning Mavarounnahr diyorimizning mutafakkirlari va olimlari butun dunyo xalqiga ma'nnaviy ozuqa bo'lmish olamshumul asarlar meros qoldirganlar. Bugun dunyo Imom Termizi, Imom Buxoriy, Ahmad al-Farg'oniy, Ibn Sino, Abu Nasr Forobi, Imom Moturidiy, Burhoniddin Marg'inoniy kabi zotlar merosiga ehtiyoji borligi hech kimga sir bo'lmasa kerak. Shu nuqtai nazardan Muhtaram yurtboshimizning bevosita tashabbusi bilan Imom Buxoriy xalqaro ilmiytadqiqot markazi, Imom Termizi xalqaro ilmiytadqiqot markazi, Imom Moturidiy xalqaro ilmiytadqiqot markazi va O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi tashkil etildi. Ulug' alloma va mutafakkirlarimizning bebafo asarlarini kelajak avlodga yetkazish, noyob yozma manbalarni saqlash va tadqiq etish tizimini yanada takomillashtirish hamda ushbu jarayonni yagona axborot tizimi va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Qadimiy yozma manbalar davlat reyestri to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqidagi" 06.09.2022-yildagi 498-sonli qarori qabul qilindi. Bugun duniyoda islom dini nomidan noxolislik bilan kechayotgan har xil qarama-qarshiliklar, mafkuraviy tahdidlar va botil g'oyalarning oldini olishda ma'rifat bilan yondashuv muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada ajodolarimizning ma'nnaviy merosini chuqur o'rganish, ulardagi ezgu g'oya va ta'limotlarni keng xalq ommasiga yetkazish va shu asosda yoshlarda sog'lom dunyoqarashni kuchaytirish, ularni azaliy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Tarixda bizning diyorimizda turli ilmiy maktablar faoliyat olib borgani ilmiy jamoatchilikka ma'lum. Samarqand, Buxoro, Xorazm, Shosh, Usturshona, Xiva, Farg'ona, Aksikent, Chag'oniyon, Nasaf, Kesh va Termiz kabi shaharlar buning yorqin dalilidir. Bu shaharlar orasida qadimgi Termiz shahri tarixi va termiziy allomalarining munosib o'rni bor. Termiz shahridan yetishib chiqqan ulug' mufassir, muhaddis, mutakallim, mutasavvif va faqihlarning buyuk xizmatlari natijasi o'laroq, bu shahar haqida tarixiy manbalarda yuksak e'tiroflar bitilgan. To'qqizinchchi asrda yashab o'tgan muarrix Abul Abbas Ya'qubiy "Termiz – shaharlarning onalaridan bo'lgan shonli shahardir", – deb ta'kidlaganligi yoki "Termiz – madinatu-r-rijol" (Termiz – mardlar (olimlar) shahridir), – deb e'tirof etilishi bu zamindan qancha-qancha ulug' allomalar yetishib chiqqanligiga dalolat qiladi.

Mana shunday ulug' zotlardan asli Termizlik – Arshiy Termizi ham o'z davrida ilmiy iste'dodi, ijodiy mahorati va xattotligi bilan Boburiylar saroyida keng shuhrat qozongan. Arshiy garchi butun umrini Hindiston mintaqasida o'tkazgan bo'lsa-da, lekin Termiziylarning munosib vorisi sifatida ilmiy-ijodiy ishda dunyoga nomini tanitdi.

ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODOLOGIYA

Bugungi kunda Mavarounnahr zaminidan yetishib chiqqan olimlarning boy ilmiy-adabiy merosini o'rganish har qachongidan keng tus olmoqda. Termizi namoyandalar va ularning bebafo merosi haqida M. Kenjabekning «Termiz tazkirası» kitobi [5, 192] diqqatga sazovor. Shu bilan bir qatorda "Termizlik olimlar asarlarining jahon fondlaridagi qo'lyozmalari katalogi" nomli fundamental tadqiqotda Termiziy mutafakkirlarning 1419 dan ortiq asarlarining nusxasi dunyoning ko'plab qo'lyozmalar fondida saqlanishi haqida tavsifiy ma'lumot berilgan [7, 443]. Albatta, amalga oshirilgan mazkur ilmiy-tadqiqot ishlari tahsinga sazovor. Ayniqsa, Hakim Termizi, Imom Abu Iso Termizi, Sayyid Burhoniddin Termizi, Xoja Samandar Termizi hayoti va foliyati bo'yicha xorijiy va mahalliy olimlarimiz ko'plab ishlarni amalga oshirganlar. Biroq bugungi kunga qadar asli Termizlik bo'lgan – Fathiy Termizi, Nomiy Termizi, Mir Muzaffar Termizi, Vasfiy Termizi, Kashfiy Termizi va Arshiy Termizi kabi boburiylar hukmronligi davrida Hindistonda ijodiy faoliyat olib borgan mutafakkirlar hayoti va merosi tadqiq etilmaganini aytib o'tish zarur. Bugun ushbu mavzuning dolzarbligini hisobga olgan holda Termiziylarning vakili bo'lmish – Arshiy Termizi hayoti va faoliyati ilk marta tadqiq etilmoqda.

Arshiy Termizi hayoti va faoliyati borasida garchi mahalliy olimlarimiz o'z tadqiqotlarida ma'lumot berishmagan bo'lsa-da, lekin otasi – Vasfiy Termizi va akasi – Kashfiy Termizi haqida

muxtasar ma'lumotlar berib o'tishgan. Ushbu satrlar muallifining «Тадқиқи рўзгор ва осори Аршии Тирмизий» nomli maqolasida shoir tarjimai holi va asarlari borasida tavsifiy mazmunga ega maqolasi Tojikistonda nashr etilgan [4, 265].

Xorijlik olimlardan Ahmad Rizo Yalmeho, Kurushi Mansur, Sayyid Hisomiddin Roshidiy, G'ulom Yazdoniy, Vahid Qurayshiy, Ahmad Mudaqqiq Yazdiy, Muhammad Boqir kabilar Arshiy Termiziy hayoti va adabiy merosi haqida tadqiqot ishlari olib borishgan [3, 69-78].

Mazkur maqolada Arshiy Termiziy hayoti, adabiy merosi tavsifi undagi mazmun-mohiyati borasida qisqa shaklda ma'lumot berib o'tilgan.

Maqolada o'rganilayotgan muammo ya'ni, Arshiy Termiziyning hayoti va ilmiy-faoliyatini adabiy manbashunoslik nuqtai nazaridan yoritib berishda ilmiy tadqiqotning analiz, sintez, germenevтика va qiyosiy tahlil kabi metodlaridan keng foydalanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Shoirning asl ismi, taxallusi va nasabi. Mir Muhammad Mo'min ibn Sayyid Abdulloh Mushkin qalam Vasfiy Termiziy ibn Mir Muzaffar asl ismi Mir Muhammad Mo'min bo'lgan. She'riyatdagi taxallusi esa "Arshiy" bo'lib, ba'zi tazkira va tarixiy manbalarda nisbasi "Akbarobodiy" deb keltiriladi. Buning sababi shoir Hindistonning Akbarobod shahrida dunyoga kelgan. Nasabi esa ota tomonidan Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi va sallamga tutashishi naql qilingan. Ajdodlari Shohruhmirzo davrida Termizdan Hindistonga ko'chib borishgani sababli Termiziy nisbasi ham goh-gohida istifoda etiladi. She'riyatdagi taxallusi haqida shunday deydi:

من عرش سخن در دور آدم
به عرش الله شده مشهور عالم

Mazmuni: Men odam farzandi orasida so'zning arshiman (so'zning ustasiman), Allohning arshi nomi bilan dunyoga tanilganman. [1, 34].

میر عبدالله وصفي (ترمذی) کرماني، فرزند میرمظفر، خوشنويس و شاعر معروف روزگار خود بود. وي در زمان جلال الدین اکبر گورکانی (1014 - 963 هجري قمري) به هند کوچ کرد و از این پادشاه خطاب مشکینقلم گرفت «. این میر عبدالله مشکینقلم منخلص به وصفي، فرزند سید مظفر و از نبیرگان شاه برہان الدین خلیلا الله بن شاه نور الدین نعمت الله ولی بود

"Mir Abdulloh Vasfiy (Termiziy) Kirmoniy, Mir Muzaffarning o'g'li bo'lib, o'z zamonasining chiroyli xat sohibi va taniqli shoiri edi. U Jaloliddin Akbarshoh Ko'rragoniy hukmronligi davrida (963-1014 h.q) Hind diyoriga ko'chib qo'nalg'a topadi. Nomi tilga olingan podshoh uning nomini "Mushkin qalam" deya e'tirof etdi. Bu kishi Mir Abdulloh Mushkin qalam taxallusi Vasfiy Sayyid Muzaffarning o'g'li, Shoh Burhoniddin Jaloliddinshoh ibn Shoh Nuriddin Ne'matulloh Valiyning avlodidandir". Mir Muhammad Mo'min "Mehr va Vafo" asarida Shoh Ne'matulloh Valiyning avlodidan bo'lganligi [8, 69-78] quyidagi baytlarda keltiradi.

به عالم گر ولی بوده علی بود
ظهورش نعمتا الله ولی بود

پس از وي چون ولايت جلوه دادند
به فرق مير عبدالله نهادند

Mazmuni: Olamda agar bir valiy bo'lsa ham Ali (r.a) edi, valiyligining zohir bo'lishi Ne'matulloh Valiy edi. Shoh Ne'matullohdan so'ng valiylik maqomiga Mir Abdullohni loyiq ko'rib, yanada valoyatga (tariqatdagi maqom) ziynat berdilar. [8, 69-78].

Demak shunday xulosa qilish mumkinki, Mir Abdulloh (Vasfiy Termiziy) Shoh Ne'matulloh Valiyning ma'naviy shogirdi bo'lgan ekan. Shuningdek nasab jihatdan qarindoshligi borligi she'nda ko'rsatib o'tilgan.

Otasi vasfi. Otasi olim, parhezkor va zamonasining mashhur xattoti va rassomi bo'lgan. Uning salohiyati, axloqiy xislatlari borasida Mir Muhammad Mo'min "Masnaviy Shohid Arshiy" asarida quyidagi tavsifiy mazmundagi so'zlarni bayon qiladi. "Gavhari bahri latifi Mustafo" ("Mustafo dengizingin latif gavhari"), "Javhari koni Murtazo" ("Murtazoning javhari koni"), "Navbahori gulshani tahqiq" ("Haqiqat gulzorining navbahori"), "Shahanshoji jahoni ma'naviy" ("Ma'naviy olamning shahanshoji"), "oftobi osmoni ma'naviy" ("Ma'naviy osmonning quyoshi"), "Olami ilmi Xudo" ("Ilohiyot ilmining olami"), "Omili ilmi tariqat" ("Tariqat ilmining vositası"), "Gulshani bog'i haqiqat" ("Haqiqat gulzorining bog'i") kabi tavsiflarni sanash mumkin.

مو به مویش مست جام ذوق و حال
جلوه گر بوده است بر تخت کمال...

هفت خط را داد اگرچه انتظام
لیک نستعلیق شد از وی تمام

نقطه‌ای کز کلک او پیدا شده
چشم جان را مردم بینا شده...

دست گوهریز او گاه رقم
ریختی بر صفحه گوهر از قلم...

بس که شیرین خط ز کاکش شد پید
کلک او چون نیش گر شیرین رسید

ملک خط را بود او صاحبقران
خوشنویسان دگر مکوم آن

Mazmuni: Butun vujudi jomdan mast, hol shavqiga to'lib toshgan va kamol martabasi uzra jilvalanmoqda. Garchi yetti xat turini tartibga keltirgan bo'lsa-da, lekin nasta'liq xatini o'z maromiga yetkazdi. Qalami shunday nuqtalarni yozardiki, ko'zi ochiq insonlar kabi basirat ko'zini ravshan qilardi. Varaq yuziga dur sochuvchi qo'li qalamdan xuddi gavhar sochgandek yozardi. Lazzat baxsh etuvchi xatni qalami bilan ko'chirardi, uning qalami nayshakar kabi shirin edi. Xat mulkida u sohibqiron edi, boshqa mohir xat sohiblari uning xatiga tobe edi. [8, 69-78].

Tavalludi. Mir Muhammad Mo'min 1594-yil Hindistonning Akbarobod shahrida dunyoga kelgan. Uning otasi mashhur rassom va xushnavis – Mushkin qalam Termiziy farzandi tarbiyasiga alohida e'tibor qaratgan. Yoshligidan farzand tarbiyasiga befarq bo'limgan otasi farzandiga diniy ilmlar bilan birgalikda badiiy san'at va she'riyatning sir-sinoatlarini o'rgatadi. Yosh Mir Muhammad Mo'min sharq mumtoz shoirlardan Sanoiy, Attor, Rumiy va Sa'diy she'riyatiga katta qiziqish bildirib, ularning asarlaridan bahramand bo'ladi.

Ta'lif olishi. Mir Muhammad Mo'min ilk ta'lif va tarbiyani ota-onasidan olgan. So'ngra ilm o'rganish maqsadida zamondosh ulamolar nazdida mantiq, balog'at, arab tili grammatikasi, fors-arab adabiyoti, tasavvuf, tarix va kalom ilmlarini o'rganadi. Mir Muhammad Mo'min yuksak iste'dod va mahoratl shoir bo'lishi bilan birga mohir rassom ham edi. Buni payqagan Doroshukuhning o'g'li – Sulaymonshukuh boburiylar sulolasiga saroyiga da'vat qilib, mol-davlat in'om etadi. Bir qancha muddat saroyda xattot sifatida faoliyat yuritadi.

Hayot tarzi. "Manoqibi Murtazoviy" va mutafakkirning asarlarida Mir Muhammad Mo'min faqirona va darveshona hayot kechirganligi qayd etib o'tilgan. Bu ma'lumotni fors adabiyotshunosi Kurushi Mansur ham tasdiqlaganini ko'rish mumkin [6, 10]. Arshiyshunos olim Ahmad Rizo Yalmaho ta'kidlashicha, Arshiy qalandarsifat va darveshsifat hayot kechirgan bo'lib, asarlarida qalandariya, malomatiya va so'fiya mavzulariga oid qarashlar ko'p uchraydi [8, 69-78]. Shoir garchi boburiylar saroyida faoliyat olib borgan bo'lsa-da, biroq faqirona hayot kechirishi uning tariqatda kasb qilingan xislati bo'lgan.

Vafoti. Arshiy butun umrini ma'rifat va ziyo tarqatishga bag'ishladi. Shoирning asarlari va tarbiya qilgan farzandi fikrimizning isboti bo'la oladi. Mutafakkir 1680-yil 90 yoshidan Akbarobod shahrida vafot etadi. Bugungi kunda qabri shu yerda joylashgan.

Otasi. Mir Sayyid Abdulloh taxminan 1560-yillar atrofida Dehli shahrida dunyoga kelgan. Bu zotning aniq tavallud sanasi ma'lum emas. "Manoqibi Murtazoviy" asarida Akbarobod shahrida tavallud topgan bo'lishi mumkinligini taxmin qilishgan. Vafoti sanasi 1625-yilga to'g'ri keladi. Baxtovarxon nomli tarixchining "Xattotlar haqida risola" asarida keltirishicha, Vasfiyning vafoti 1615-yilda ko'rsatilgan. Mutafakkirning qabri bugungi kunda Hindistonning Ajmir shahridadir. Biroq 1625-yil sanasi manbalarning ma'lumoti asosida haqaqatga yaqinroq ekanligini aytib o'tish lozim.

Vasfiy Termiziy hayoti va manoqibi (axloqiy xarakteri) borasida ikki o'g'li – Muhammad Solih Kashfiy va Muhammad Amin Arshiy tomonidan "Foyizul qulub" (Muhammad Solih Kashfiy) va "Fotihul qulub" (Muhammad Amin Arshiy) asarlarida keng ma'lumot berilgan. Ushbu asarlarning xarakterli jihat shundan iboratki, ularda Mushkin Qalamning individual xarakteri, valiylik maqomi,

ilm borasidagi muhabbat, shaxsiy fazilatlari, olimlarga bo'lgan ehtiromi, parhezkorligi va faqirona hayoti tasvirlab berilgan. Shuningdek, mazkur asarlarda boshqa valiyalar axloqi haqida ham to'xtalib o'tilgan.

Akasi. Muhammad Solih Kashfiy Termiziying tavallud sanasi ma'lum emas. Vasfiy Termiziy yoshligidan o'g'lining qiziqishiga qarab dastlab unga o'zi dars bergan bo'lsa, so'ngra zamondosh olimlar huzurida tarbiya olishga sharoit yaratadi. Muhammad Solih yoshligidan ilmga bo'lgan rag'bati sababli tarix, tasavvuf, kalom, mantiq, she'riyat, Qur'on ilmlari, hadis va falsafani yaxshi o'zlashtiradi. Yoshligidan she'riyatga bo'lgan qiziqishi sababli masnaviy janrida she'r yoza boshlaydi. Bundan tashqari Kashfiy xattotlikda ham mohir edi. 1651–1652-yillar atrofida Agra shahrida vafot etadi. Kashfiy barakali umri davomida ruhiy tarbiya borasida quyidagi asarlarni bizgacha meros qoldirgan. *"Manaqibi Murtazoviy"*, *"Ruboiyot"*, *"E'jozi Mustafaviy"*, *"Shahidi qudsiy"*, *"Risolai musiqiy"*, *"Devon"* (She'riy devon), *"Majmuai roz"*.

O'g'li. Mushkinqalam Termiziying nevarasi Sayyid Muhammad Hoshim Arshiy Termiziying o'g'lidir. U "Hoshimiyl", "Shoh Jahongir" taxallusi bilan she'rlar yozgan. Sayyid Muhammad Hoshim Shoh ibn Mir Muhammad Mo'min ibn Mir Abdulloh Husayn Termiziy 1671-yili Akbarobod shahrida Mir Muhammad Mo'min Termiziy oilasida dunyoga keladi. "Riyoz ul-orifin" tazkirasida Rizoqulixon Hidoyat uning kunyasi Abu Abdulloh va taxallusi Shohjahongir bo'lganligini ta'kidlaydi. Zamonasing mutasavvif va orif shoirlaridan bo'lgan. Islom dini va islomiy ilmlarga rag'bati baland, Payg'ambarimiz (s.a.v) sunnatiga mustahkam zot edi. "Mazharu-l-anvor" nomli masnaviyi bizgacha yetib kelgan. Asar qodiriya tariqati g'oyalari asosida yozilgan. Shoир 1737-yili 70 yoshida vafot etadi.

Asarlari. Arshiy Termiziy butun umrini ilm o'rganish va insonlarga ziyo ularish bilan o'tkazgan. Mutafakkirning asarlari nazm uslubida yozilgan bo'lib, ijtimoiy-axloqiy munosabatlarning muhim qismi bo'lgan ruhiy tarbiya mavzulari hamda qodiriya tariqatining qarashlarini o'z ichiga qamrab oladi.

Arshiy Termiziy "Devon"i. Arshiyning asarlari orasida muhim adabiy ahamiyatga molik asarlardan biri bu she'riy "Devon"idir. Ushbu asar devon tartib berish an'anasiga muvofiq tarzda qasida, g'azal, qit'a ruboiy, soqynoma, mufradot kabi she'riy janrlardan iborat. Bugungi kunda asarning qo'lyozma nusxasi Hindistonning Anjuman Bangol kutubxonasining №94 raqam ostida saqlanib kelinmoqda. Ushbu asarning yana bir nusxasi Tojikiston Respublikasining Ivanov kutubxonasida borligi haqida Ali Rizo Yalmaho ma'lumot bergen. Mazkur asar bugungi kunga qadar tadqiq etilmagani bois o'z tadqiqotchilarini kutmoqda.

"Mehru Vafo" manzumasi. Ushbu asar Arshiyning pok muhabbat mavzusida yozilgan masnaviy janridagi asarlardandir. Asarda mualif muhabbatning darajalari, sadoqatsiz munosabat muhabbat emasligi, balki vaqtinchalik hoyu havasdan iboratligini ta'kidlab, insonga dunyo va oxiratda lazzat baxsh etuvchi narsa insoniy va ilohiy muhabbatning nasib etishi bilan bog'liq, – deydi. U aytadiki, ota-onaga muhabbat, farzandga muhabbat, ustozga muhabbat, vatanga muhabbat, xulqi go'zal insonlarga muhabbat, fazilatli amallarga muhabbat aslida saodatdir. Bu saodatga yagona vosita esa Allohga bo'lgan haqiqiy muhabbatdir. "Mehru Vafo" masnavysi 2200 baytdan iborat bo'lib, shoirning orifona mavzuda bag'ishlangan, hazaji musaddasi mahzuf (maqsur) vaznida yozilgan asaridir. Asar Nizomiy Ganjaviyning "Xusrav va Shirin" dostoni payravligida yozilgan.

"Shakariston". Arshiy ushbu asarni nazm va nasr uslubi bilan Shayx Sa'diy Sheraziying "Guliston" va Abdurahmon Jomiying "Bahoriston" asarlari payravligida yozgan. "Shakariston" asari ijtimoiy-ma'naviy munosabatlar, ruhiy tarbiya, tasavvufiy mavzular va valiy zotlarning manoqibiga bag'ishlangan. Asar 1622-yil Arshiyning yoshlik davrida yozilgan bo'lib, bugungi kunda Hindistonning Indiya №823 va Pokistonning Milliy muzeyi №273-1969.M.N. raqamlari ostida saqlanib kelmoqda. "Shakariston" asari mavzu-mundarijasi quyidagichadir: *Imomlar haqidagi rivoyatlar; Murshidlar va peshvolar haqidagi rivoyatlar; Posoholar va vazirlarning siyrati; Odob va suhbat; Orif zotlar va oshiqlar va xotima*.

"Masnaviyi Shohidi Arshiy". "Masnaviyi Shohidi Arshiy" Jaloliddin Rumiynig "Masnaviy" asari ta'siri ostida yozilgan bo'lib, hajmi 3000 baytni tashkil qiladi. Asarning mavzu-mundarijasi odob-axloq va tasavvufiy ma'no-mazmundan iborat.

ADABIYOTSHUNOSLIK

Umuman olganda, Arshiyning asarlari olam va odam hamda komil inson axloqi uchun kerakli bo'lgan ruhiy poklanish, ruhiy xulqlanish, ruhiy poklanishni orifona va shoirona tarzda xalqchil uslub bilan keng kitobxonlarga yetkazgan. Ayniqsa, farzand tarbiyasi borasidagi nasihatlari zamon va makonlar osha yoshlari tarbiyasi uchun ma'naviy ozuqa sifatida xizmat qilishi muqarrar.

XULOSA

Ushbu maqolada Termiziylarning yetuk vakili sanalmish – Muhammad Mo'min Arshiy Termiziyning qisqacha tarjimai holi, davr adabiy muhitida tutgan o'rni, boy adabiy merosi tavsifi, asarlarining mavzu-mundarijasi kabi mavzular bayon etilgan. Shoir hayoti va faoliyati o'rganilganda quyidagi xulosalarga kelindi.

Termiziy nasabi bilan ijod qilgan mutafakkirlar nafaqat Mavarounnahr zaminida faoliyat yuritgan, balki Xuroson, Hind va arab diyorlarida ham Termiziy nisbasi bilan ilmiy faoliyat olib borganligi aniqlandi;

Termiziy mutafakkirlar tafsir, hadis, fiqh, kalom, mantiq va she'riyat ilmlarida olim bo'lishi bilan birga, badiiy ijodning amaliy san'ati bo'lmish xattotlik, kotiblik, naqqoshlik, rassomlik va musiqashunoslik borasida ham asarlar yozganligi ma'lum bo'ldi;

Boburiylar saroyidagi hukmdorlar ilm-fan, madaniyat va san'atga alohida e'tibor qaratganligi sababli, Hindiston diyorida asli Mavarounnahrlik bo'lgan ulug' allomalar yetishib chiqdi. Bunga misol sifatida Nomiy Termiziy, Mir Muzaffar Termiziy, Mushkin qalam Vasfiy, Kashfiy Termiziy, Arshiy Termiziy, Hoshim Termiziy, Fozil Termiziy, Sayyid Ali Termiziy kabi zotlarni ko'rsatish mumkin. Hatto Bedil kabi zotlar fors adabiyotida "Abul ma'oniy" (Ma'nolar otasi) kabi yuksak unvonga sazovor bo'lishi bevosita Shohjahon va Avrangzebning olimlarga bo'lgan alohida e'tibori mahsulidir.

Hindistonda yashab va ijodiy faoliyat yuritgan Termiziylarning aksari o'sha yurtda keng tarqalgan tariqat – Qodiriya tariqatining Chishtiya tarmog'iga ergashib, asarlarini ham shu tariqatning g'oyalari ta'sirida yozgan.

Arshiy Termiziy Hindiston adabiy maktabida nafaqat shoir, balki mutasavvif olim, qodiriya tariqatining arbobi, mohir xattot sifatida Akbarshoh va Shohjahon saroyida xizmat qiladi.

Arshiy salaf shoirlar qatori g'azal, qasida, ruboiy va masnaviy janrlarida qalam tebratgan. Shuningdek, asarlari tili, uslubi sodda va xalqchil bo'lganligi bilan boshqa zamondosh shoirlarning asarlaridan ajralib turadi.

Arshiy Jaloliddin Rumiy, Nizomiy Ganjaviy kabi so'z daholariga payravlik qilib, asarlarining ma'no-mazmunidan keng foydalangan holda nazm va nasrda axloqiy mavzularga boy asarlar yozadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Arshiy Termiziy o'z davrida asli vatani bo'lgan – Termiz nomini Hind diyoriga tanitish bilan birga bu yurtning farzandlari iste'dodi va salohiyatini dunyo hamjamiyatiga ko'rsatishga munosib hissa qo'shgan. Binobarin, bugun yoshlarni shu kabi serqqirra va mazmunli hayot kechirib, o'z xulqi va faoliyati bilan jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashgan ajdodlarimizning boy merosini o'rganishga har qachongidan ko'ra muhtojroqdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Арший Акбарободӣ. Мехру вафо. Нусҳаи хаттии китобхонаи шаҳсӣ.
2. Arshiy Termiziy. Masnaviyi Shohid Arshiy. Tehronning islomiy sho'ro kutubxonasining №9056 raqamli nusxasi.
3. Ahmad Rizo Yalmaho. Du shoiri bo yak taxallus Arshiy Yazdiy va Arshiy Akbarobodiy. //Fununiy adabiy (ilmiy-pajuhishiy). – Donishgohi Isfahan, shumorai 10 1393 h.
4. Жамаҳматов К. “Аз таърихи пайвандҳои илмӣ ва адабии ҳалқҳои тоҷику ўзбек гузашта, ҳозира ва оянда” — номли ҳалқаро конференсия тӯплами. – Душанбе: Садриддин Айний номидаги педагогика университети, 2023.
5. Kenjabeck M. Termiz tazkirası. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2001. — 192 b.; Shu mualif. Buyuk Termiziylar. Termiz tazkirası. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2017.
6. Muhammad Solih Kashfiy Termiziy. Manoqibi Murtazaviy/bo tashehi Kurushi Mansur. – Tehron: Intishoroti Ravzana, 1342 h.
7. Termizlik olimlar asarlarining jahon fondlaridagi qo'lyozmalari katolog. – Toshkent: Fan, 2018.
- احمدرضا یلمه ها. دو شاعر با يك تخلص عرشي يزدي و عرشي اکبرآبادی. - فنون ادبی (علمی - پژوهشی) دانشگاه اصفهان سال ششم، شماره 8. پیاپی 10 (بهار و تابستان 1393 ص، 69- 78)
- احمدرضا یلمه ها. دو شاعر با يك تخلص عرشي يزدي و عرشي اکبرآبادی. - فنون ادبی (علمی - پژوهشی) دانشگاه اصفهان سال ششم، شماره 1. پیاپی 10 (بهار و تابستان 1393 ص، 69- 78)